




A laptop is shown in the foreground, displaying a dashboard with various charts and data. The dashboard includes a navigation menu on the left, a top section with several data points, and a large area with multiple line and bar charts. The text '2021- yil yanvar-iyul oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi' is overlaid on the laptop screen.

2021- yil yanvar-iyul oylarida Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 768,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 752,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,0** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6 768,0	124,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	277,0	117,0
Moliyaviy xizmatlar	1 162,7	126,2
Transport xizmatlari	1 628,8	126,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 468,3	120,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	251,0	106,8
Savdo xizmatlari	2 112,6	115,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	157,1	124,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	331,4	157,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	121,2	142,9
Ijara xizmatlari	192,0	147,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	139,0	133,2
Shaxsiy xizmatlar	141,6	132,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	62,8	111,5
Boshqa xizmatlar	190,8	129,3

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **31,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **0,9 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **32,9 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,0 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**57,8 %**), ijara xizmatlarida (**47,3 %**), sog'liqni saqlash (**42,9 %**), kompyuterlarni ta'mirlash (**33,2 %**), shaxsiy xizmatlar (**32,6 %**), boshqa xizmatlar (**29,3 %**), transport xizmatlar (**26,9 %**), moliyaviy xizmatlar (**26,2 %**) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**24,7 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlari (**15,9 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **149,6 %**.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **29,6 %**.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,2 %** ni tashkil etib, bu esa **2 112,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 647,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,9 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **72,1 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **77,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 162,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **896,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **17,9** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **266,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **149,6** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,9 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,6 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,4 %**.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **277,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **117,0 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turi hajmi **231,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **4,6 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **105,2 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi

2021- yil yanvar-iyul



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-iyul**

**2021- y.
yanvar-iyul**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **331,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,9 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **157,8 %** ni tashkil etdi.




Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **205,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida pasayish **5,1 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi G'ijduvon (**19,4** mlrd. so'm), Jondor (**14,0** mlrd. so'm), Shofirkon (**9,4** mlrd. so'm), Qorako'l (**9,3** mlrd. so'm), Buxoro (**7,8** mlrd. so'm) va Romitan (**7,1** mlrd. so'm) tumanlari hamda Buxoro shahrida (**235,9** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **171,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **49,8** mlrd. so'mga ortgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyul

**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

2020- y. yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **85,1 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-iyul




2020- y.
Yanvar-iyul



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021-yil yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Buxoro shahrida **49,6** % ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Kogon shahrida – **117,1** % kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Buxoro viloyati *)	6768,0	124,0	101,2
Olot	249,0	119,1	98,6
Buxoro	385,9	119,5	97,7
Vobkent	476,4	182,1	97,4
G'ijduvon	877,0	120,5	99,2
Jondor	373,4	119,4	98,0
Kogon	228,9	128,2	99,5
Qorako'l	304,4	119,3	97,7
Qorovulbozor	117,9	112,6	86,1
Peshku	335,5	112,7	98,3
Romitan	365,2	118,4	96,2
Shofirkon	298,0	117,7	97,5
shaharlar:			
Buxoro sh.	2512,4	123,9	103,9
Kogon sh.	244,0	122,4	97,4

**) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)



2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **37,1 %** (2020- yil yanvar-iyul oylarida – **37,1 %**)ni Buxoro shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumanida – **1,7 %** (2020- yil yanvar-iyul oylarida – **1,9 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 465,8
ming so'm

Hajmning
o'sishi

865,8
ming so'mga

2021- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 465,8** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 600,0** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **99,8 %** da qayd etilgan.



122,5 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- avgust holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

19 150
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2 791
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

117,1 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


63,6 %

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,6 %**, sanoat **15,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **10,9 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,6 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **63,7 %** ni, sanoat **15,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,8 %** ni, qurilish **10,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**43,0 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **8,7 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7 %** ga teng bo'ldi




2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **81,1 %** ga to'g'ri keldi.

